

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: daminovalgiloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14776534>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati hamda tartibga solish va rivojlantirishda xorijiy tajribasidan foydalanish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek oziq-ovqat bozorini xavfsizligiga erishishda davlat tomonidan amalga oshirilishgi zarur bo'lgan vazifalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish, oziq-ovqat dasturlari, oziq-ovqat xavfsifligi.

Xorijiy davlatlarning oziq-ovqat bozori va iqtisodiyotning boshqa sohalarini tartibga solish tajribasi, samarali bozor ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratishda va ularni faoliyatga tadbiiq etishda davlatning yuqori darajadagi rolini yaqqol ko'rsatadi. Oziq-ovqat bozorini tartibga solish davlatning iqtisodiy siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biridir va bu jarayon ayniqsa, agrar sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur. Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tartibga solish amaliyotlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ajralmas shartlariga aylangan, va bu tajriba, o'z navbatida, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim.

Davlat tomonidan oziq-ovqat bozorini tartibga solishning asosiy maqsadi, qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirish uchun barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu, aholi uchun sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash, atrof-muhitni himoya qilish, va eng muhimi, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish, ijtimoiy maqbul narxlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ta'minlash orqali, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishni, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishni va ekologik barqarorlikni saqlashni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi, oxir-oqibatda, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat muammosini hal qilish so'nggi yillarda jahon qishloq xo'jaligi rivojlanish tendentsiyalaridan kelib chiqqan yangi qiyinchiliklar tufayli tobora murakkablashmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sish sur'ati, unga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga qaraganda sezilarli darajada past bo'lib qolmoqda. Natijada, ko'plab hududlarda surunkali ocharchilik muammosi jiddiy xavf tug'dirishga boshladi, bu esa aholining oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarb qiladi.

Uzoq muddatda insoniyat oziq-ovqat muammosini samarali hal qilish yo'llarini ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish orqali topishi kutilmoqda. Yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlar, oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy sharoitda, butun dunyo bo'yicha jahon hamjamiyatining birgalikda kelishilgan siyosat va hamkorlikdagi amaliy harakatlari zarur bo'ladi. Kelajakda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va har bir mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida,

xalqaro hamkorlikda ishlash, oziq-ovqat fondini shakllantirish masalalarini birgalikda hal qilishga katta ahamiyat berilishi kerak. Bu, o'z navbatida, global oziq-ovqat inqirozlarini oldini olish va dunyo bo'ylab barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim qadam hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global miqyosda xalqaro tashkilotlar va maxsus organlar tomonidan hal qilinadi. Bunga, masalan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Xalqaro savdo tashkiloti, Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi kabi muhim tashkilotlar kiradi. Ularning asosiy maqsadi, insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va davlatlar iqtisodiyotlarini barqarorlashtirishda yordam berishdir. Ushbu tashkilotlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ko'plab strategiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini hal qilishda, birinchi navbatda, ishlab chiqarish hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi uzoq muddatli dasturlar va loyihalar ishlab chiqish, ularni joriy etish zarur. Bu dasturlar, global oziq-ovqat ta'minoti uchun muhim infratuzilma yaratishga, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, zaxiralar yaratish va noqulay iqtisodiy yoki ekologik vaziyatlarda tezkor yordam tashkil qilish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ham muhim vazifa hisoblanadi. Masalan, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelganda, zaxiralar yordamida tezda oziq-ovqat ta'minoti boshqariladi va zarur yordam ko'rsatiladi. Shu tarzda, xalqaro tashkilotlar va organlar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki jahon miqyosidagi iqtisodiy va ekologik inqirozlar davrida samarali choralar ko'rish orqali davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini xavfsizligiga erishish quyidagi muhim vazifalarni davlat tomonidan amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Barqaror iqtisodiy sharoitni yaratish;
2. Samarali agrar siyosatni olib borish;
3. Barcha xo'j alik yurituvchi subyektlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish;
4. Aholi bandligi sohasida samarali siyosatni olib borish;
5. Oziq-ovqatga ega bo'lishda tengsizlik va qashshoqlikni bartaraf etishga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni olib borish;
6. Oziq-ovqat mahsulotlarini turli-tuman, barqaror va intensiv ishlab chiqarishga erishish, uning samaradorligini oshirish;
7. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda ilg'or texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish;
8. Hududlarni xomashyo va oziq-ovqat mahsuloti bilan o'zini ta'minlash va xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklardan samarali foydalangan holda qishloq xo'jaligini joylashtirish vaixtisoslashtirishni takomillashtirish;
9. Faol tashqi iqtisodiy siyosatni olib borish, eksport-import faoliyatini optimallashtirish;
10. Agrar sektorni investisiyalash.

Dunyoning ko'p mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish va shu orqali mamalakat oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo'jaligi va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning tatbiqiga bog'liq. Ularni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

1. Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati;
2. Savdo siyosati;

3. Iste'molni qo'llab-quvvatlash strategiyalari;

4. Ozuqa moddalar ta'minoti dasturlari.

Bunday dasturlar bir birini cheklamagan va ko'p mamlakatlarda bir vaqtda amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida "Yashil inqilob" nomi bilan tanilgan ekinlar hosildorligi birdan yuksalishi jarayoni sharofati bilan oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi.

Barcha mamlakatlarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar agrar sohada ilm-fanni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ilmiy va texnologik yutuqlarni joriy etish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishdir. Xitoyda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri, qishloq xo'jaligi sohasida ilg'or texnologiyalarni keng joriy etishdir. Xitoyning yangi agrar siyosati doirasida agrar soha ilm-fanini moliyalashtirishni ko'paytirish va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarishdagi ilm-fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini joriy etishni rag'batlantirish rejalashtirilgan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi Xitoy tajribasi noyobdir, chunki mamlakatda dunyo aholisining 22 foizini oziqlantirish vazifasi turibdi, bu dunyo yerining 7 foizini tashkil etadi. Agar uning hududida oziq-ovqat ishlab chiqarilmasa, hatto dunyo oziq-ovqat eksporti bu mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shu sababli Xitoyda importga katta bog'liqlik muammosi mavjud emas.

Ilmiy izlanishlarimiz asosida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo'yicha mintaqalar tomonidan to'plangan barcha xilma-xil tajribalardan xulosa qilib oziq-ovqat mahsulotlari bozorini samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratishni ko'rsatish mumkin:

- aholi jon boshiga o'rtacha oziq-ovqat turlari bo'yicha iste'mol qilishning hududiy normalarini shakllantirish;
- barcha tashkiliy-huquqiy shakllardagi tashkilotlar uchun hududiy oziq-ovqat bozorlariga kirish hamda teng raqobat muhitini ta'minlash;
- erishilgan oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pasayishining oldini olish va yanada oshirish choralarini izlash;
- mintaqaviy oziq-ovqat bozorlari holati to'g'risidagi axborotning ochiq va shaffoqligini ta'minlash;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan mamlakatning hukumati tomonidan qo'yilgan vazifaning ahamiyatini tushunish va uni hal etish uchun sa'y-harakatlarni kuchaytirish.
- viloyat hududida katta miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarni saqlash quvvatiga ega bo'lgan omborlarni ko'paytirish. Bular orqali har yili meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy turlari saqlab, ichki bozorlardagi narx-navoni barqaror ushlab turish va kuzgi-qishki mavsumda ushbu mahsulotlardan aholi ehtiyoji uchun foydalanish.

References:

1. Кураласва А.А. Региональные особенности формирования и функционирования продовольственного рынка: автореф.дис. на соиск. учен. степ. канд. эконом. наук (08.00.05)/ Нальчик-2011г.

2. Альтухов А.И. Россияда озиқ-овқат бозорининг ривожланиши. -М.: АгроПресс, 1999. - 336 б.,
3. Жаҳон савдо ташкилоти ва миллий иқтисодий манфаатлар / Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро муносабатлар институти. - М.: Наука, 2003. - Б.11

